



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-oktabr

569-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy metiz ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentyabrdagi 615-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 485-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy metiz ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentyabrdagi 615-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrdagi 485-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy metiz ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentyabrdagi 615-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-sentyabrdagi 485-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentyabrdagi 615-son qarori bilan:

Belgilanishicha, 2030-yil 1-yanvarga qadar metiz ishlab chiqaruvchilarga “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” savdolari orqali “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan ishlab chiqarilgan po‘lat sim xarid qilish uchun to‘lovlarni 90 kun ichida kechiktirib to‘lash sharti bilan sotish tartibi joriy etilishi.

Bunda:

a) xarid qilinadigan po‘lat sim uchun to‘lovlarni mahsulot narxining 25 foizini bo‘nak tarzida, qolgan 75 foizini mahsulot olinganidan so‘ng 90 kun ichida kechiktirib to‘lash sharti bilan uni sotishga ruxsat etilishi;

b) kechiktirib to‘lash sharti bilan xarid qilingan po‘lat sim uchun to‘lovni ta‘minlash maqsadida iste‘molchilar tomonidan bank kafolati yoki kafilligi berilishi;

v) birja savdolariga chiqariladigan po‘lat sim markalari va savdolarida ishtirok etuvchi metiz ishlab chiqaruvchilar ro‘yxati Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasi tomonidan birgalikda tasdiqlanishi;

g) kechiktirib to'lash imkoniyati berilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar summasi quyidagicha belgilanadi:

30 kun ichida to'langan to'lovlar qismiga — foiz hisoblanmaydi;

31 kundan 60 kungacha to'langan to'lovlar qismiga — Markaziy bank asosiy stavkasining 50 foizi miqdorida foiz hisoblanishi;

61 kundan 90 kungacha to'langan to'lovlar qismiga — Markaziy bank asosiy stavkasi miqdorida foiz hisoblanishi;

belgilab qo'yilishicha, "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan metiz ishlab chiqaruvchi korxonalarining eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish maqsadida ularga tijorat banklar orqali 18 oy muddatgacha yillik 4 foizli stavkadan (shundan 2 foizi tijorat banki marjasi) oshmagan miqdorda imtiyozli kreditlar ajratish uchun moliyaviy resurslar yo'naltirilishi;

bunda metiz ishlab chiqaruvchi korxonalarining oxirgi 12 oy davomida qilgan eksport hajmi:

5 million AQSh dollarigacha bo'lganda — 1 million AQSh dollarigacha;

5 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha bo'lganda — 2 million AQSh dollarigacha;

10 million AQSh dollaridan 15 million AQSh dollarigacha bo'lganda — 3 million AQSh dollarigacha;

15 million AQSh dollaridan 20 million AQSh dollarigacha bo'lganda — 4 million AQSh dollarigacha;

20 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda — 5 million AQSh dollarigacha tijorat banklari orqali kreditlar ajratilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**